

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA

Nordic Internotsional University

Abidjanova Vasila To'lunovna

Tyutor, tarbiyachi – pedagog

v.abidjanova@nordicuniversity.org


+99877-308-06-08



**Mavzu: O'quvchilarning
axloqiy tarbiyalanganlik
darajasini tashxis etish**

Reja:

- O'quvchilarning axloqiy tarbiyalanganligi ko'rsatkichlari va mezonlari.
- O'quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini tashxis etish metodikasi.



Insoniyatning yer yuziga kelishidan e'tiboran kishilar muayyan jamoa a'zosi sifatida shaxslararo munosabatga kirishishi, muloqot o'rnatishi, muomala maromiga rioya qilishi lozim, deb belgilanishi tarbiyalanganlik o'lchovining vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

- Tarbiyalanganlikning asosiy belgilari quyidagilardan iborat, deb hisoblaydi – mutaffakir **Alisher Navoiy**:
- Jahl chiqqanda o'zini bosa olish, har bir ishni qilganda “yeti o'lchab bir kesish”, sir saqlay olish, mulohaza qilish, ayrim gaplarni ichga yutish;
- Doimo ishonch bilan yashash va olg'a intilish, andisha chegarasidan chiqmagan holda dadil bo'lish;
- Bir ishni boshlagandan keyin uni oxirigacha yetkazmay qo'ymaslik;
- Topgan-tutganini tejab-tergab sarflash va hokazlar.

- **Az-Zamaxshariy**ning fikricha, tarbiyalanganlikning o'nta belgisi bor:
 - xalq to'g'ri deb topgan narsani noto'g'ri deb qaramaslik;
 - o'z nafsiga erk bermaslik;
 - birovdan ayb qidirmaslik;
 - yomonlikni yaxshilikka yo'yishlik;
 - agar gunohkor uzr so'rasa, uzrini qabul qilish;
 - muhojirlar hojatini chiqarish;
 - el g'amini yeyish;
 - o'z aybini tan olish;
 - el bilan ochiq yuzli bo'lish;
 - odamlar bilan shirin muomalada bo'lish.

Bugungi kunda tarbiyalanganlik darajasini aniqlaydigan quyidagi testlar mavjud

Umuminsoniy sifatlarni shakllantirish testlari

Axloqiy tushunchalarni shakllantirish testi

Ijtimoiy va boshqa sifatlarning shakllanganlik testi

Axloqiylikning belgilari:
yaxshilik to'g'rilik, adolat
kamtarlik, sahovat,
oliyjanoblik, do'stlik va
hamkorlik, mehnat
poklik va go'zallikka
intilish kabilardir.



Eng avvalo o'qituvchilarning umumiy madaniyat va tarbiyalanganlik darajasini oshirish uchun optimal pedagogic-psixologik vaziyatlarni tashkil qilish, fanlararo integratsiyalashuv jarayonini ta'minlashda taqdim qilinayotgan o'quv materiallarining sifat ko'rsatkichini oshirish lozim.

O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini o'stirish uchun ularda axloqiy kategoriyalarni anglash, idrok qilish va ijtimoiy hayotda amal qilish tarbiya maqsadining kafolatlangan natijasidir.

Tashxis obyektini
tanlash

Tashxis
metodikasi
belgilash

Tashxis o'tkazish

Yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va korreksiyalash quyidagi tartibda amalga oshiriladi

Natijalarni tahlil
qilish

Diagnostika taxlillari
asosida korreksion
tavsiyalar va
tadbirlar ishlab
chiqish

Metodik xizmat
qilish mazmunini
belgilash va
amalga oshirish

Qayta tashxislash,
sifat o'zgarishlarini
aniqlash

KEYS

Boshlang'ich sinf o'quvchisi muntazam ogohlantirishlarga qaramasdan dars vaqtida axloqsiz harakatlar qilar va boshqa o'quvchilarga halal berardi. Bolaning ota-onasi chet elda,u yolg'iz buvisi bilan yashidi.Bunday vaziyatda pedagog sifatida qanday yo'l tutar edingiz?





E' tiboringiz uchun rahmat!